O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati asoslanadigan asosiy tamoyillardan biri mamlakatimiz ta'lim tizimining yagonalik tamoyili sanaladi. Mamlakat miqyosida ta'lim sohasidagi davlat siyosatini ta'lim tizimining o'ziga birlashtirilgan sohalarini boshqarishga mas'ul etib tayinlangan uch davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi amalga oshiradilar ^[1].

Har bir rivojlangan va demokratik davlatda bo'lganidek, mamlakatimizda ham fuqarolarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlari Bosh qomusimizda belgilanib, mustahkamlab qo'yilgan. Ta'lim sohasidagi qonunchilikning vazifasi, bu yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning mana shu huquq va imkoniyatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, shuningdek, ta'lim sohalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, ularning strategiyasi, maqsadlari va vazifalarini belgilashdan iborat ^[1].

Barcha pog'onalaridagi ta'lim mazmuniga va sifatiga talablar davlat ta'lim standartlari bilan belgilanadi. Davlat ta'lim standarti (DTS) – mamlakat konstitutsiyasiga mos holda ishlab chiqiladigan va joriy etiladigan ma'lumotlilik va ta'limning ijtimoiy me'yori bo'lib, u bir qancha komponentlarni o'z ichiga oladi. DTS komponentlari asosiy ta'lim dasturlarining mazmunidagi majburiy minimumni, ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamasidagi maksimal hajmni, bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga talablarni belgilab beradi. Milliy ta'lim tizimining asosiy o'ziga xosligi uning ko'p darajaliligi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ^[1] har bir fuqaro uchun uning deyarli tug'ilishidan to'keksalik davrlarigacha quyidagi pog'onalarda bosqichma-bosqich bilim olishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim ^[1].

Shunday qilib, davlat uzluksiz ta'limni – "butun umr" ta'lim olish tamoyilini amalga oshiradi. Ta'lim olish shaklini ta'lim subyekti (ta'lim oluvchi) shuningdek, o'z xohishi bo'yicha tanlab oladi: ta'lim muassasasida bu kunduzgi, sirtqi, kechki, mustaqil ta'lim olish, eksternat shakllaridan bo'ladi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan masofaviy ta'lim singari zamonaviy ta'lim shakli ham tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasiga oid ko'plab hujjatlar masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida to'la ta'lim olishni ko'zda tutadi. Bu, ilgari faqat alohida ta'lim dasturlari o'zlashtirilishi imkoniyati bilan mavjud bo'lgan ta'limdan farq qilib bugungi kunda ta'lim oluvchi ta'lim muassasasi pedagoglaridan istalgan masofadan to'laqonli ta'lim olishi imkoniyatini anglatadi. Bunda bitiruvchilarning majburiy yakuniy attestatsiyasi an'anaviy yoki noan'anaviy metodlar bilan amalga oshiriladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning nodavlat sektori ham mustahkamlab qo'yilgan. Ta'limning turli pog'onalarini qamrab oluvchi mulkchilik shakllari har xilda – davlat, xususiy yoki boshqa mulkchilik turlarida bo'lishi mumkin ^[1].



Uchinchi ming yillikka o'tish davrida ro'y berayotgan islohotlarning katta to'liqini davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari kabi ta'lim sohasini ham chetlab o'tmadi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasi zamonaviy ta'lim talablariga moslashish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Ta'limni zamon talablariga moslashtirishning bosh maqsadi ta'lim tizimini barqaror rivojlantirib borish mexanizmini yaratish, milliy oliy talim tizimining eng yaxshi an'analari qayta shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimiz milliy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalanishi va unda o'zining munosib o'rini egallashini ta'minlashdan iborat.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ommaviy axborot vositalarida, jamiyatda va kasbiy muhitda diqqat-e'tibor markaziga tushadigan munozaralarni keltirib chiqaradi. Bunda ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha mazmuniga va ketma-ketligiga ko'ra turli chora-tadbirlar – modernizatsiyalash zarurligini qat'iy rad qilishdan tortib to taklif etilayotgan modernizatsiyalash tadbirlari majmuasini shubhasiz qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan mulohazalar bildirilmoqda. Bundan kelib chiqib, ta'lim tizimini isloh qilish zarurati muqarrar va ravshan bo'lib qolmoqda.

Yigirma birinchi asr bilimlarga asoslangan iqtisodiyot asriga aylanib, uning eng muhim resurslaridan biri bo'lib ilm-fan, ta'lim va iqtisodiyotdagi yuqori texnologiyali sektorlarning kadrlar potentsiali sanaladi [6].

Bunda ta'lim siyosatining ustuvorliklari quyidagilardan iborat. To'laqonli ta'lim olishning teng imkoniyatlari va ommabopligining davlat kafolatlarini ta'minlash, ta'limning barcha pog'onasida zamonaviy ta'lim sifatiga erishish, ta'lim tizimiga budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishda ta'lim sohasiga oid zaruriy hujjatlarni ishlab chiqishni tezlashtirish, pedagog-xodimlarni, professor-o'qituvchilarning ijtimoiy mavqeini, ta'lim berish uslubi, mahorati, malaka va tajribasini oshirish hamda ularning mehnati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek himoyalanihini yanada kuchaytirish, ta'lim siyosati subyektlari orasida mas'uliyatni taqsimlash va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ota-onalar, ta'lim muassasalarining rolini oshirish asosida davlat-jamoatchilik tizimi sifatida ta'limni rivojlantirish [6].

Shunday qilib, davlat ta'lim siyosatining bosh vazifasi ta'limning fundamentalligini saqlab qolish, shaxs va jamiyat hamda davlatning istiqboldagi ehtiyojlariga mosligi asosida zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlarda oliy ta'lim Bolonya jarayonining umumiy yo'nalishlarini e'tiborga olish asosida rivojlanmoqda. Konferensiyalar va yig'ilishlarda keng yo'lga qo'yilgan muhokamalar natijasida bu mamlakatlarda Bolonya jarayoni tamoyillari joriy qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S. Reznikning fikriga ko'ra, missiya va maqsadlarni belgilash ikki xil, ya'ni keng va tor ma'noni kasb etadi. Keng ma'noda missiya - tashkilotning mavjudligi va maqsadlari falsafasini konstatatsiyalash sifatida, tor ma'no esa, oliy ta'lim muassasasi nima uchun mavjud ekanligi, uning boshqa oliy ta'lim muassasalaridan farqi nimada ekanligini aniqlash tarzida olib qaraladi [7].

O. Vixanskiy "tashkilot missiyasi nimalarni namoyon qilishidan qat'iy nazar barqaror, kuchli va o'ziga xos ta'sirni mulkdorlar, xodimlar va xaridorlarning o'zaro manfaatlari ko'rsatadi" deb hisoblaydi. Shuning uchun tashkilot missiyasi kishilarning mana shu uchta guruhi manfaatlari uyg'unlashgan holda shakllantirilishi kerak [8].

"Universitet missiyasi" maqolasining mualliflari N. Makarkin va O. Tomilinlarning fikriga ko'ra, ta'lim xizmatlari bozorida xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyekt hisoblangan oliy ta'lim muassasasi missiyasining mavjudligi strategik boshqaruv dastagi sifatida zarur. Ularning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasasining missiyasi yetarlicha tez-tez slogan tarzida yangrab, bunda u masalan, "oliy ta'lim muassasasi ta'limning ilmiy va madaniy markazi hisoblanadi" degan tarzda istalgan oliy ta'lim muassasasining missiyasi ko'rinishida o'rta qichiq chiqishi mumkin. Bu istalgan oliy ta'lim muassasasining missiyasi bo'lib o'rta qichiq chiqadi, lekin unda konkret oliy ta'lim muassasasining yuzini, uning u yoki bu faoliyat turini amalga oshiradigan, betakrorligini tashkil etadigan individual identifikatsiyasini topish murakkab bo'ladi, shuning uchun missiya ishlab chiqilishi lozim. Mualliflar quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladigan oliy ta'lim muassasasining missiyasini ishlab chiqish jarayonini taklif etadilar [9]:

Yuqorida aytib o'tilganlarga xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim muassasasiga nisbatan missiya – bu aniq shakllantirilgan, harakatga undaydigan, oliy ta'lim muassasasining istiqboldagi qiyofasini, uning mana shu idealga qarab intilishi tamoyillari va usullarini, barcha ta'sir ko'rsatuvchi guruhlarining manfaatlari uyg'unlashtirilishini aks ettiruvchi va tashkilotning barcha a'zolari xayrixohlik bildirishlarini keng bayon qilishdir. Chiroqli yozilgan va jozibador hisoblanadigan lekin tashkilot a'zolari tomonidan qabul qilinmagan missiya ijrochilardan ajralib qoladi, mustaqil mavjud bo'lib turaveradi va o'zining strategik funksiyasini bajara olmaydi.

A. Mardas va O. Mardaslar "tashkilotning maqsadlari uning missiyasidan kelib chiqadi. Barcha maqsadlar o'ylab olingan, konkret, o'lchamli, erishsa bo'ladigan, resurslar bilan taqqoslangan va vaqt bo'yicha cheklangan bo'lishi zarurdir" deganlar [10].



Shuningdek, A. Mardas, O. Mardas, L. Zaysev, M. Sokolovlar “maqsadlarni shakllantirishda o’lchanadigan vazifa yoki samaradorlikning tanlab olingan mezonni boshlang’ich nuqta bo’lib sanalishini” ta’kidlaganlar ^[10, 11].

T. Zub “xizmatlar sohasida maqsadni belgilash bir qator o’ziga xosliklarga ega bo’lib, xizmatlar va bu xizmatlarni ko’rsatish jarayonining o’ziga xosliklari bilan shartlanishi hamda tegishli ravishda tashkilotlar faoliyati rejalarini tuzish bo’yicha ishlarni murakkablashtirishi, shuningdek, agarda moddiy ishlab chiqarishda iqtisodiy omillar va faoliyat natijalari orasida qat’iy belgilab qo’yilgan aloqadorlik mavjud bo’lsa, u holda xizmatlarni ko’rsatishda bunday aloqadorlik yanada moslashuvchan va murakkabroq bo’ladi” deb hisoblagan ^[12].

V. Vladimirov, I. Reshetnikovalarning fikricha “oliy ta’lim muassasasi faoliyatining natijasi moddiy ne’matlar emas, balki ta’lim xizmatlari va tadqiqotlar hisoblanadi. Ikki asosiy vazifa – ta’lim berish va ilmiy faoliyatni olib borish orasidagi qarama-qarshiliklar, unda bir vazifaning hal qilinishi ikkinchi sohada oliy ta’lim faoliyatiga zarar yetkazishida namoyon bo’lishi mumkin” ^[13].

M. Magura “maqsadni belgilash xohlanayotgan natijalarning ehtimoliy muqobil variantlarini talqin qilish, ularni bashorat qilish va belgilangan maqsadlarga ularning mosligi natijalarini tahlil qilishdan va nihoyat, eng afzal variantni tanlab olishdan iborat bo’ladigan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda qabul qilish bilan jips holda bog’langan bo’ladi” deb ta’kidlagan ^[14].

A. Panovanning fikriga ko’ra, asosiy qarorlar to’rt model doirasida qabul qilinishi mumkin ^[15]. Kollegial model, bunda qarorlar barcha o’qituvchilar tomonidan hamkorlikda qabul qilinadi, bunday model sekin ishlaydi, barcha qarorlar esa ichki muammolarga yo’naltiriladi. Iyerarxik model, bu model doirasida qarorlar yakka tarzda qabul qilinadi, hokimiyat esa markazlashgan bo’ladi. Siyosiy model, bu model muzokaralar kuchi bilan qaror qabul qilish hamda hokimiyatning nomarkazlashuvi bilan tavsiflanadi. Anarxik model, bunda qarorlar yetarlicha erkin qabul qilinadi.

V. Vladimirov va I. Reshetnikovalarning fikricha bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida qaror qabul qilishning kollegial va iyerarxik modellari ustunlik qiladi, bunda ular ko’pincha strategik qarorlarning qabul qilinishida o’z samarasizligini namoyon etib qo’ymoqda ^[16].

O. Vixanskiy, L. Zaysev, M. Sokolova, A. Matansevlar “strategiyani tanlab olish va uni amalga oshirishda tashkilotning bozor muhitidagi keyingi yo’nalishlari, xulq-atvori yo’llari tushuniladi, bunday sharoitda faoliyatni amalga oshirish tashkilotni o’z oldida turgan maqsadlarga erishishga olib kelishi kerakligini” aytib o’tganlar ^[17, 18, 19]. Strategiyani ishlab chiqish jarayonida iqtisodiyotning “Nima”, “Qanday?” va “Kim uchun?” degan bosh savollariga javob topish mumkin.

J. Evans, B. Bermanlarning tasdiqlashiga ko’ra, strategik rejalashtirish marketing bilan tobora ko’proq bog’lanib bormoqda va kelgusida, ehtimol, strategik rejalashtirish marketingga tegishli bo’lishi ham mumkin ^[27].

V. Tomilov va T. Xakunovlar o’zlarining “Tashkilotni boshqarishning optimal tuzilmasini shakllantirishning marketing konsepsiyasi” nomli asarida shuni tasdiqlaydilar, tashkilot faoliyatida marketingdan foydalanish boshqaruv konsepsiyasini tubdan o’zgartirib yuboradi, eng asosiysi bozor talabiga mos holda assortimentni ishlab chiqish hisoblanadi. Tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilashda endilikda ishlab chiqarish imkoniyatlari emas, balki uning bozor imkoniyatlari asosiy hisoblanadi ^[27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmonida Respublikamizda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ^[5] asosida ta’lim muassasalarini raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqarish tizimini takomillashtirish imkoniyatlari, yo’nalishlari, mazmuni hamda bajarish vaqtlari keltirilgan bo’lib, ular bir necha bosqichdan iborat: oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o’tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg’or standartlarini joriy etish, jumladan o’quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo’naltirilgan ta’limdan amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o’tish; O’zbekiston oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish; oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish; oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish; oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijasini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish; yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etishdan iborat ^[5].


Mazkur konsepsiyada “Ta’lim muassasalarini raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqarish tizimini takomillashtirish” muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Samarali iqtisodiyot – bu, avvalo, birinchi navbatda samarali boshqaruvdir. Har bir subyektning bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat olib borishi avvalambor farovon iqtisodiyotga bog’liq. Bunday sharoitni anglashda bizga, avvalo menejment va boshqaruv tushunchalari o’rtasidagi farqni anglash darkor.



TAHLIL VA NATIJALAR

Strategik boshqaruvda ta'lim tashkilotlariga ehtiyoj ularni zamonaviy jahon tendensiyalari asosida takomillashtirishni talab qiladi.

Barcha sohalarida strategik loyihalarni yaratish tajribasi asosida tuzilgan OTMni strategik boshqarish bosqichlari ko'rsatilgan shakl quyida tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm: OTMni strategik boshqarish bosqichlari



Diagnostik tahlilni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hamda raqobatdagi ustunliklarni tadqiq qilish va rivojlanishning strategik ustivorliklarini tanlab olish asosida oliy ta'lim muassasasini boshqarishdagi makro quyi tizimlarni majmuaviy tadqiq qilish metodidir.

Diagnostik tahlil uchun dastlabki ma'lumotlar quyidagilar sanaladi. Oliy ta'lim muassasasining so'nggi 10 yildagi yillik hisobotlari, oliy ta'lim muassasasining oxirgi davlat akkreditatsiyasidan o'tish natijalari, oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, ekspert baholashlari va sotsiologik so'rovnoma natijalari [21].

Strategik rejalashtirish jarayoni operativ qarorlarni qabul qilish jarayonidan sezilarli farq qiladi. Bu yerda muntazam ravishda muqobil harakatlarni belgilab olish bilan bog'liq bo'ladigan vazifalarni hal qilish zarur. Bu tashkilot maqsadlarini tanlab olish, resurslarni taqsimlash, strategik vazifalarni tanlab olishga taalluqli. Ehtimoliy yechimlarni izlab topish ko'p jihatdan strategik rejalashtirishning adaptiv xususiyatlariga bog'liq.

Dj. Per, X. Devidlarning fikriga ko'ra, strategiyalarni baholash uchun odatda, nazoratning uchta – yillik rejalarini nazorat qilish, rentabellik nazorati, strategik nazorat kabi turlaridan foydalaniladi. Strategik nazorat tizimi samarali bo'lishi uchun u bir qator talablarni qondirishi lozim. Nazorat tizimidan kelib tushayotgan axborotlarga qat'iy talablar quyidagilar hisoblanadi [22]: strategiyani to'g'rilab borish bo'yicha zarur qarorlarni qabul qilish uchun axborotlar o'z vaqtida kelib tushishi kerak; nazorat jarayonlari holatini mos ravishda aks ettiradigan axborotlar to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak; axborotlarda ularning olinganlik vaqti va unga taalluqli bo'lgan vaqt aniq ko'rsatilishi zarur.

O'z strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan tashkilotlar faoliyati L. Aleksandrning tahliliga ko'ra, ular o'z faoliyatlarida quyidagi qoidalarga rioya qiladilar [23]: birinchidan, maqsadlar, strategiyalar va rejalar xodimlar tomonidan nafaqat tashkilot nima qilayotganini tushunishnigina emas, balki strategiyani amalga oshirish jarayoniga rasmiy va norasmiy holatlarda jalb etilishlari uchun ularning diqqat-e'tiborlariga yetkaziladi, bu xodimlarda strategiyani amalga oshirish bo'yicha tashkilot oldidagi majburiyat hissi paydo bo'lishiga olib keladi; ikkinchidan, rahbariyat nafaqat strategiyani amalga oshirish uchun zaruriy resurslarni o'z vaqtida ta'minlaydi, balki maqsadli yo'l-yo'riqlar va ko'rsatkichlar rejasiga ham ega bo'ladi hamda har bir maqsadga va har bir ko'rsatkichlarga erishishni qayd etib boradi. Bu bosqichda eng katta ahamiyat obyektiv va aniq axborotlarni olish uchun tashkilotning ichki faoliyatiga qaratiladi.

Mahalliy olimlardan G. Sa'dullayeva "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish marketing strategiyasini aniqlashda asosiy e'tibor ko'pincha strategik boshqaruvning asosini tashkil etuvchi istiqbolli rejalashtirishga qaratiladi. Istiqbolli rejaning amalga oshirilishi boshqaruvning hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi" – deb fikr bildirgan [23].

I. Nematovning fikricha, "Oliy ta'lim muassasasining marketing strategiyasini amalga oshirish samaradorligini turli o'lchov tizimiga ega asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish negizida strategiya amalga oshirilganligi darajasiga ko'ra "muvaffaqiyatli emas" (100 %dan yuqori), "muvaffaqiyatli" (80 % - 100 %), "amalda muvaffaqiyatli deb topish mumkin" (60 % - 79,9 %), "qoniqarli" (30 % - 59,9 %), "qoniqarsiz" (30 %dan kichik) mezonlari asosida baholash taklif etilgan" [24].

Yangi dasturlar va mutaxassisliklarni joriy qilish strategiyasi vaqt bo'yicha serxarajat bo'lsa, mualliflik huquqlari mavjud emasligi esa "nusxa ko'chirish" va takrorlanuvchanlik bilan xavflidir. Shunday qilib, ta'lim muassasalari ehtimoliy muqobil strategiyalarning katta miqdoriga duch kelishlari mumkin.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida ta'lim muassasalarini raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqarish tizimini takomillashtirish bosqichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq (2-rasm):


blanadi, bunda u, oliy ta'lim muassasasi (5-10 yilga) rivojlanishining istiqbolli rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi hamda raqobatbardoshlikni oshirish uchun oliy ta'lim muassasasi resurslaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi [25].

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishning ijtimoiy asoslari shakllantirilmoqda. Hozirgi vaqtda Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning yetakchi tendensiyalaridan biri strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son [3] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son [4] qarorlarida oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy strategik boshqaruv tendensiyalari aks ettirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan: nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini oshirish; mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish; oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish; oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish; malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish; oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish; davlat oliy ta'lim muas-



sasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish; oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish vazifalari belgilangan.



2-rasm: Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish mezonlari

Oliy ta'lim tashkilotlarini strategik boshqarish bozor iqtisodiyoti sharoitlarida zaruriy va obyektiv faoliyat hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu jarayonlarni hayotda tadbir etishda shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlarining muvozanatlashuvi va maqsadlari o'zaro hamkorlik qiladi. Yuqorida OTMlar uchun bir nechta asosiy ko'rsatkichlar tavsiflab o'tilgan bo'lib, ular bir tomondan baholash tizimiga kiritilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ta'lim uchun ta'lim tashkilotining uzoq muddatli qiymatini yaratish strategiyasida tasvirlandi.

Oliy ta'lim muassasalarining strategik boshqaruv jarayoni modelini quyidagi ko'rinishda izohlaymiz: Modelimiz asosan to'rt qismdan iborat.

Birinchi qismda – ichki muhit diagnostikasi, boshqaruv strategik tahlili, tashqi muhit diagnostikasi keltirilgan.

Ikkinchi qismda – boshqaruvda strategik ustuvorliklar, asosiy ta'lim strategiyalari, ixtisoslashgan faoliyat uchun strategiyalar, tashkilotni boshqarish strategiyalari keltirilgan.

Uchinchi qismda – harakatlar strategik dasturi, taktik va operativ boshqaruv, strategik boshqaruv keltirilgan.


To'rtinchi qismda – OTMlarni boshqarish shakllari:

- oliy ta'lim muassasalari (to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish, sotsiometrik so'rov elementlaridan foydalangan holda baholash tartibi);
- kadrlar buyurtmachilari (talabalar amaliyotini kadrlar buyurtmachilari bo'lgan korxona va tashkilotlarda samarali tashkil etish, Kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda bitiruvchilarni mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirish, magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish);

- malaka oshirish (xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar ulushi, malaka oshirish kurslarida dars beruvchi xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar ulushi, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ilmiy-innovatsion faoliyat);
- strategiya (nomzodlarga qo'yiladigan professional kompetensiyalarga oid talablar, oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari faoliyatini baholash tizimini, ilmiy jurnallarni nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritish).

Ushbu taklif etilayotgan yangi, zamonaviy modelning asosiy maqsadi, oliy ta'limning innovatsion, strategik boshqaruv tizimi mohiyatini asoslashdan, tashkiliy-funksional tuzilmasini, uning tegishli strukturalari, bo'lim va boshqarmalarining ish olib borish uslublarini empirik tasvirlash, yuqori saviyadagi, iqtidorli va zamon talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim boshqaruvi tizimidagi o'rnini yangi nazariy uslubda asoslashdan iborat.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, tadqiqot doirasida o'rganish va tahlillardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm: Ta'lim muassasasining strategik boshqaruv jarayoni modeli



Shunday qilib, tezkor o'zgaruvchan tashqi muhitda mustaqillikning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lish bilan OTMLar qotib qolgan boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqish zaruratiga duch keladilar. Amalda hozirgi kungacha strategik rejalashtirish vazifasi har bir ta'lim tashkiloti tomonidan mustaqil holda o'z resurslari, maqsadlari, vaziyatni ko'ra bilishiga bog'liq holda hal qilib kelindi. Bugungi kunda biznesda to'plangan strategik rejalashtirish tajribalari oliy ta'lim tizimiga ham muvaffaqiyatli ravishda olib o'tilmoqda.

Bu sohada shakllanib ulgurgan texnologiyalangan ishlanmalar to'plamini ham ta'kidlab o'tish zarur bo'lib, ular doirasida strategik rejalashtirish ta'lim muassasalari tomonidan hatto dinamik ravishda o'zgaruvchan shart-sharoitlarda ham foydalanilishi mumkin bo'lgan yaqqol va yetarlicha sodda texnologiyaga aylanmoqda. Bunday texnologiyalarga strategiya mantig'ini tavsiflovchi, ta'lim tashkilotining qiymatini yaratadigan va ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'ladigan nomoddiy aktivlarni belgilab beradigan ichki jarayonlarni aniq ko'rsatuvchi strategiyalarni kiritish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimini oliy ta'limning sifati va bitiruvchilarning raqobatbardoshligi, ta'lim dasturlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, talabalarning yangi metodika va o'quv adabiyotlari bo'yicha o'qitish hamda tayyorlashning ilg'or xalqaro tajribasini hisobga olgan holda, modernizatsiya qilish asosida ta'minlash jarayoni amalga oshirilayotgani va bu O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga jahon ta'lim makonida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini berishi aniqlangan.

Strategik rejalashtirish - tashkilot oldiga qo'ygan maqsadlarini belgilash, takomillashtirish va rivojlanishning strategik g'oyalarini ishlab chiqish, tashkilotning kelgusida samarali ishlashini ta'minlash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tayanch strategiyalarini tanlab olish va bashorat qilish yo'li bilan strategik rejani ishlab chiqish jarayoni ekanligi aniqlangan.

Oliy ta'lim muassasasining konkret shart-sharoitlariga maqsadlar va mezonlarning namunaviy to'plamini moslashtirish usuli taklif etilgan. Maqsadlar va mezonlarning namunaviy to'plami turli mintaqalardan 100 nafardan ortiq ekspert ishtirok etishi bilan ko'p marotaba amalga oshirilgan "aqliy hujum" natijasida chiqarilgan. Moslashtirishning mohiyati oliy ta'lim muassasasining quyi makrotizimlari bo'yicha shakllantirilgan maqsadlar tahlilidan va oliy ta'lim muassasasining o'ziga xosligidan kelib chiqib belgilanadigan boshqaruvning ahamiyatli mezonlaridan tanlab olingan.

Bitiruvchilarning soni ortishi menejment mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi tizimining o'zgaruvchan ijtimoiy talablarga va shart-sharoitlarga mosligini ta'minlash hamda mazkur kasbning nufuzini oshirish, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining mintaqadagi boshqa oliy ta'lim muassasalariga nisbatan raqobatbardoshligini oshirish kerakligi aniqlangan.

Tezkor o'zgaruvchan tashqi muhitda mustaqillikning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lish maqsadida ta'lim muassasalarining qotib qolgan boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarurati, amalda hozirgi kungacha strategik rejalashtirish vazifasi har bir ta'lim tashkiloti tomonidan mustaqil holda o'z resurslari, maqsadlari, vaziyatni ko'ra bilishiga bog'liq holda hal qilib kelinishi, biznesda to'plangan strategik rejalashtirish tajribalari oliy ta'lim tizimiga ham muvaffaqiyatli ravishda olib o'tilishi, texnologiyalangan ishlanmalar to'plamini strategik rejalashtirish ta'lim muassasalari tomonidan hatto dinamik ravishda o'zgaruvchan shart-sharoitlarda ham foydalanilishi mumkin bo'lgan yaqqol va yetarlicha sodda texnologiyaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-38-son, 419-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022-y., 4-son, 26-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-y., 51-son, 771-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-y., 51-son, 772-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., 41-son, 765-modda.
6. Сериков С.Г., Богдан И.В. Теория и практика управления образованием: Стратегическое планирование в образовательной организации/ Вестник ЮУрГУ. Серия "Образования. Педагогические науки" 2014. – с. 26-37. доступно на www.cyberleninka.ru/article/n/strategiches-planirovanie-v-obrazovatelnoy-organizatsii



7. Резник С.Д. Управление кафедрой: Учебник. 2-е изд., перераб и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. -635 с.
8. Виханский О.С. Стратегическое управление: Учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Экономистъ, 2003. – 296 с.
9. Макаркин Н.П., Томилин О.Б. Миссия университета. Университетское управление. 2003. № 5-6 (28). С. 9-13.
10. Мардас А., Мардас О. Краткий курс практического менеджмента. - СПб.: Издательский Дом "Литера", 2002. - 160 с.
11. Зайцев Л.Г., Соколова М.И. Стратегический менеджмент: Учебник. -М.: Экономистъ, 2004. - 416 с.
12. Зуб Т.А. Стратегический менеджмент. - М.: Аспект Пресс, 2004.
13. Владимиров В.Н., Решетникова И.В. Особенности государственного вуза как объекта стратегического управления. /Всероссийская научно-техническая конференция "Наука - производство - технологии - экология": Сборник материалов: В 7 т. - Киров: Изд-во ВятГУ, 2008. Том 5. СЭФ-194с. С. 24-28.
14. Магура М.И. Поиск и отбор персонала: Практическое пособие для руководителей и специалистов кадровых служб. - М.: ЗАО "Бизнес-школа "Инернет - Синтез", 1997. - 80 с.
15. Панова А. О структуре управления и принятия решений в российских вузах.//Вопросы экономики, 2007. №6
16. Владимиров В.Н., Решетникова И.В. Особенности государственного вуза как объекта стратегического управления. / Всероссийская научно-техническая конференция "Наука - производство - технологии - экология": Сборник материалов: В 7 т. - Киров: Изд-во ВятГУ, 2008. Том 5. СЭФ-194с. -С. 24-28.
17. Виханский О.С. Стратегическое управление: Учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Экономистъ, 2003. – 296с.
18. Зайцев Л.Г., Соколова М.И. Стратегический менеджмент: Учебник. - М.: Экономистъ, 2004. - 416 с.
19. Матанцев А.Н. Стратегия, тактика и практика маркетинга. - М.: Юристъ, 2002. -378 с.
20. Томилов В., Хакунов Т. Маркетинговая концепция формирования оптимальной структуры управления предприятием //Маркетинг. - 1999 - №3. - С. 17-22.
21. Егоршин А., Горбунова Е. Концепция стратегического управления вузом // Высшее образование в России. - 2007. - № 10. -С. 31-39. // доступно на www.cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-strategicheskogo-upravleniya-vuzom/viewer.
22. Дженстер Пер, Хасси Девид. Анализ сильных и слабых сторон компании: определение стратегических возможностей: /Пер. с англ. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2003. - 368 с.
23. Sa'dullayeva G.S. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi 08.00.11 – Marketing 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari) Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. – B. 18. 68 b.
24. Nematov I.U. Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi misolida) 08.00.11 – Marketing 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022. -B. 9-10. 59 b.
25. Durmanov, A., Tkachenko, S., Berezovska, L., Protas, O., & Parashchenko, L. (2019). Social partnership of services sector professionals in the entrepreneurship education. Journal of Entrepreneurship Education, 22(4).
26. Эванс Дж. Р., Берман Б. Маркетинг. - М.: Экономика, 1993. -193с.
27. Томилов В., Хакунов Т. Маркетинговая концепция формирования оптимальной структуры управления предприятием //Маркетинг. - 1999 - №3. -С. 17-22.
28. Alexander L.D. Successfully Implementing Strategic Decisions // Long Range Planning. Volume 18. No 3. 1985. P. 91-97.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.